

Tarixiy-me'moriy yodgorliklarni saqlash bo'yicha seminar-trening o'tkazilmoqda

Xiva shahrida (YEBBR) Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining umumlashgan madaniy meroslar dasturi doirasida "Loy arxitekturasini saqlash" mavzusida seminar-trening bo'lib o'tmoqda.



Xorazm Ma'mun akademiyasi bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan ushbu ilmiy amaliy tadbirda olimlar va tarixiy-me'moriy yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash hamda targ'ib qilish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ishtirok etishmoqda.

Seminar-trening 10-aprelga qadar davom etadi.